

**FERMER XO'JALIKLARIDA BUDJETLAR NAZORATINI
SHAKLLANTIRISH.**

Davletov Ikrom
ToshDAU, dotsenti

Bozorov Bahodir Alijon o'gli
ToshDAU, magistranti
bozorovbahodir@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fermer xo'jaliklarida byudjet nazoratini shakllantirish va ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Fermer, tashkilot, xo'jalik, byudjet, shakllantirish, hisobot, sotish.

Аннотация. В данной статье даны рекомендации по формированию и ведению бюджетного контроля в фермерских хозяйствах.

Ключевые слова: Фермер, организация, ферма, бюджет, формирование, отчет, продажа.

Abstract. This article gives recommendations on the formation and maintenance of budgetary control in farms.

Key words: Farmer, organization, farm, budget, formation, report, sale.

Har bir fermer xo'jaligida tuzilgan budjetlar nazoratini amalga oshirish reja tuzish markazi ma'sul xodimlari, yani barcha budjetlarni tayyorlagan bosh hisobchi va xo'jalik rahbari tomonidan amshlga oshirilishi lozim. Xo'jalikda amalga oshiriladigan har qanday muomala reja tuzish markazi tomonidan tasdiqlangan dastur doirasida bo'lishi lozim. Fermer xo'jaligi rahbari, ushbu markaz tomonidan reja dasturlarni to'g'ri va aniq tuzilishi uchun xamda ushbu tuzilgan budjetlarni nazorati uchun kerakli bo'lgan axborotlarni o'z vaqtida shakllantirilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Shuningdek rahbar, xo'jalik uchun smeta tuzish bo'yicha qo'llanma xo'jalikda mavjud bo'lishini ta'minlashi shart. Ushbu qo'llanma, nazorat masuliyati zimmasiga yuklatilgan xodimlar uchun yo'riqnoma vazifasini o'tash bilan bir qatorda, budjetlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonida tuziladigan budjetlarning tartibi va shakli bo'yicha ma'lumot beradi.

Xo'jalikda har doim nazoratni ushlab turish va belgilangan reja dasturlardan chetga chiqishlarni oldini olishda tannarx hisoblashning me'yoriy usuli katta ahamiyat kasb etadi. Tannarx hisoblashning me'yoriy (standart costing) usuli me'yoriy xarajatlar va daromadlar bilan faoliyatning haqiqiy natijalarini solishtirib borish imkonini beruvchi nazorat usulidir.

Fermer xo'jaligi "Standart — kost" tizimidan to'la kajmda foydalangan paytda zaxiralar va sotilgan maxsulot tannarxi schetlariga ta'sir qiladigan barcha xarajatlar yuz bergan haqiqiy xarajat tarzida emas, balki standart (me'yoriy) yoki oldindan aniqlangan xarajat sifatida aniqlanadi. Harajatlar harakati va harajatlar –

hajm – foyda tahlili nisbati bilan birga hisob tizimiga me'yoriy hrajatlarni kiritish budjetlarini nazorat qilish jarayoni uchun asosni ta'minlaydi.

Fermer xo'jaligi faoliyati nazoratida bu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

Xo'jalik rahbariga smeta tuzish va faoliyat samaradorligini baholashda yordam beradi.

Nazoratni ta'minlaydi. U rejaga muvofiq bo'lmagan asosiy faoliyatga ta'sir etuvchi holatlar to'g'risida qaror qabul qiluvchilarni ogohlantirishi bilan ijobiy natijaga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu holatda tuzatuvchi amallarsiz faoliyat nazoratdan chiqishi mumkin.

Qarorlar qabul qilish natijasida yuzaga keladigan harajatlarni prognozlash.

Mahsulotlarni baholashda harajatlarni mahsulot tannarxiga o'tkazish jarayonlarini osonlashtirish.

Me'yoriy qiymat – bu oldindan aniq shartlarda belgilanadigan va pul ko'rinishida beriladigan o'lchov miqdori hisoblanadi. Me'yoriy qiymat asosiy hisobotlarni nazoratga olgan holda faoliyatni baholovchi vosita sifatida, Tovar moddiy zahiralarni baholashda ishlatiladi.

Mahsulot tannarxini hisoblashda me'yoriy kalkulyatsiyalash (standart costing) usulidan foydalanilganda bugalteriya hisobi registrlarida haqiqiy harajatlar kiritilayotgan ma'lumotlar sifatida normative harajatlar yakuniy ma'lumotlar sifatida aks ettiriladi. Materiallar zaxiralari, tayyor mahsulotlar zaxiralari va sotilgan mahsulotning tannarxi kabi schotlar haqiqatda bo'lgan sarflardan emas, me'yoriy harajatlardan foydalanib yurutiladi. Bugalter haqiqatda qilingan harajatlarni alohida yozib boradi. Hisobot davri oxirida haqiqiy hisob ma'lumotlari ularning me'yoriy qiymatiga haqiqiy va me'yoriy harajatlar o'rtasidagi farqlar tannarx tafovutlari sifatida hisobga olinganidan so'ng hisobot davrida sotilgan mahsulotlar hamda ombordagi mahsulot qoldig'i o'rtasida mutanosib ravishda korrektyrovka qilinadi.

Hisobot davri oxirida fermer xo'jligi faoliyatiga baho berish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun me'yoriy hamda haqiqiy harajatlar o'rtasidagi tafovutlar tahlil etiladi.

Tahlilda ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarning har birini tafovutlar yuzaga kelishidagi hissasi aniqlanadi va baho beriladi. Tafovutlarni tahlil qilish sifatida ma'lum bo'lgan bu jarayon harajatlarni va umuman boshqaruv tizimini nazorat qilishning samarali vositasidir.

Odatda, boshqaruv hisobida tafovutlarni anqlash uchun me'yoriy harajat va daromadlar asosida haqiqiy sotish (yoki ishlab chiqarish) hajmiga nibatan moslashuvchan smeta tayyorlanadi va faoliyatning haqiqiy natijalari asosida tahliliy amallar bajariladi.

Fermer xo'jaliklarida harajatlar me'yorlari, smetalari mahsulotning normativ kalkulyatsiyasini ishlab chiqish haqiqiy harajatlarning me'yoriy harajatlarga muvofiqligini tezkor nazorat qilishga, paydo bo'lgan og'ishishlarni tezkor ravishda

aniqlash va bartaraf etishga imkon beradi, yani tannarxning shakllanish jarayonini boshqarishning yani – tafovudlar bo'yicha boshqaruv usuli paydo bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlangan tannarx hisoblashning me'yoriy usulida lozim me'yorlarni o'rnatish uchun bir qancha yo'nalishlar mavjud bo'lib ular quyidagicha turkumlanadi:

Mukammal me'yor (nazariy). Bu shunday me'yorki, ular uskunalarni buzilmay, sinmay, to'xtovsiz, samaradorlikning eng yuqori darajasida ishlashga asoslangan. Ular ishlab chiqarish quvvatining hozirgi darajasida ehtimoli bo'lgan harajatlarning eng kam miqdorini ko'rsatadi.

Haqiqiy me'yor (ishonarli, amaliy). Bu me'yor xo'jalikda foydali ish koeffitsienti yuqori bo'lganda, yani bajarilayotgan ish samaradorligi yuqori bo'lganda, uskuna va jihozlar ko'ngildagidek ishlayotgan hamd material sarfi belgilangan hajmlarda sarflanayotgan holatlarda ishlatiladi. Ushbu me'yor qo'llanilganda odatiy yo'qotishlar yoki moddiy qiymatliklar tarkibidagi odatiy kamayishlar hamda faoliyatdagi to'xtalishlar hisobiga turli imtiyozlar yaratiladi.

Asosiy me'yor (o'rtacha) uzoq muddatli faoliyat uchun mo'ljallangan.

Joriy me'yor (rejalashtirilgan) joriy sharoitlarga bog'langan holda qisqa muddatli faoliyat uchun ishlab chiqiladi.

Yoqub fermer xo'jaligi g'allachilikka ixtisoslashgan bo'lib unig jami yer maydoni 25,5 ga, yaylov 2,1 ga, boshqa yerlar 4,8 ga maydonni egallaydi. Umumiy yer maydonidan jami ochiq yer 18,6 ga shu jumladan bug'doy ekilgan yer maydoni 16 gani, tokzor esa 2 gani tashkil etadi. 2020 yilda "Galla alteg" korxonasi bilan shartnoma tuzilgan. Fermer xo'jaligi har gektaridan 42 s sotish majburiyatini olgan, 1 tonna donning shartnoma bahosi 1550000 so'm. Fermer xo'jaligi 2020 yil oxiriga omborda don qoldirish mo'ljallanmagan.

Fermer xo'jaligida sotish budjeti quyidagicha tuziladi .

4.1.1-jadval

Sotish budjeti

Maxsulot turi	Talab t	1 t bahosi, ming so'm	Sotish hajmi, ming so'm
Bug'doy doni	67,2	1550	104160

Bug'doy doni uchun fermer xo'jaligiga qo'yilgan talabni aniqlash uchun bir gektar uchun belgilangan sotish majburiyatini bugdoy ekiladign maydonga ko'paytiriladi: $16 \times 42 = 672$ s. Jami talab miqdori (67.2 t) ni sotish narxi (1550)ga ko'paytirib sotishdan tushum (104160 ming so'm) ni aniqlaymiz.

Sotish budjetidan so'ng fermer xo'jaligining budjetlashtirilishida ishlab chiqarish rejasi quyidagicha tuiladi:

4.1.2-jadval

Ishlab chiqarish budjeti

Rejalashtirilayotgan sotis hajmi,s	010	672
Hisobot davri oxiriga don qoldig'i,s	020	-

Hisobot davri boshiga don qoldig‘i,s	030	-
Don ishlab chiqarish rejasi,s (010+020+030+040)	040	672

Hisobot davri boshiga don qo‘ldig‘i mavjud bo‘lmagani va davr oxiriga omborda maxsulot qoldirish mo‘ljallanmaganligi sababli ishlab chiqarish rejasida, rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish hajmi (672 s) sotish hajmiga teng bo‘ladi.

Ishlab chiqarish rejasidan so‘ng sotish budjeti malumotlari sosida materiallar xaridi budjeti tuziladi:

4.1.3-jadval

Materiallar xaridi budjeti

Maxslot turlari	Ekiladigan maydon	Materiallr					
		Urug‘lik		Ammiakli selitra		Fosforli o‘g‘it	
		Meyori kg/ga	Umumiy sarfi, s	Meyori kg/ga	Umumiy sarfi, s	Meyori kg/ga	Umumiy sarfi, s
Bug‘doy doni	16	225	36	200	32	280	44,8
Ishlab chiqarish ehtiyoji, s		x	36	x	32	X	44,8
Hisobot davri oxiriga material qo‘ldig‘i, s		x	-	x	-	X	-
Hisobot davri boshiga material qo‘ldig‘i, s		x	-	x	-	X	-
Umumiy soib olish rejasi, s		x	36	x	32	X	44,8
Material narxi so‘m/s		x	200000	x	240000	X	420000
Materiallarni sotib olish xarajalari, so‘m		x	7200000	x	7680000	X	18860000

Fermer xo‘jalik yer maydonining bonitet balini xisobga olgan holda bir gekar maydon uchun urug‘lik meyorini 225 kg etib belgilandi.G‘alla ekilgan maydonning o‘lchamidan kelib chiqib ammiakli selitra va fosforli o‘g‘it uchun xo‘jalikda mavjud bo‘lgan ehtiyoj aniqlandi.

Materiallar sarfi budjetidan ko‘rinib turibdiki, hisobot davri oxiriga materiallardan zaxira qoldirish mo‘ljallanmaganligi sababli fermer xo‘jaligida 67,2 t miqdoda don yetishtirish uchun jami materil xarajatlari 33696000 so‘mni tashkil etmoqda.

Materiallar sarfi budjetidan ko‘rinib turibdiki, hisobot davri oxiriga materiallardan zaxira qoldirish mo‘ljallanmaganligi sababli fermer xo‘jaligida 67,2 t miqdoda don yetishtirish uchun jami materil xarajatlari 33696000 so‘mni tashkil etmoqda.

4.1.4-jadval

Materiallar sarfi budjeti

Hisobot davri boshiga material qo'ldig'i, so'm	010	Urug'lik	Ammiakli selitra	Fosforli o'g'it
Materiallarni sotib olish xarajatlari, so'm	020	7200000	7680000	18860000
Hisobot davri oxiriga material qo'ldig'i, so'm	030			
Jami maerial xarajatlari, so'm (010+020+030)	040	33696000		

Materiallar sarfi budjetidan ko'rinib turibdiki, hisobot davri oxiriga materiallardan zaxira qoldirish mo'ljllanmaganligi sababli fermer xo'jaligida 67,2 t miqdoda don yetishtirish uchun jami materil xarajatlari 33696000 so'mni tashkil etmoqda.

Fermer xo'jaligida budjetlashtirishni tashkil etish bosqichlarining to'rtinchisi bo'lmish mehnat sarfi budjeti quyidagicha tuziladi.

4.1.5- jadval

Mehnat sarfi budjeti

mahsulot	Ishlab chiqarish hajmi, t	1 tonna mahsulot uchun sarf qilinadigan ish vaqti, soat	Jami talab qilinadigan ish vaqti, soat	Soatbay ish haqi so'm	Ish haqi harajatlari, so'm
Bug'doy	67,2	29	1948,8	5000	9744000
Jami	67,2		1948,8		

Ushbu budjet, ishlab chiqarish hajmi bilan bog'lik bo'lgan doimiy va o'zgaruvchan harajatlarni analiz qilish asosida tuzilgan. Bundan tashqari harajat me'yorlari texnologik karta ma'lumotlariga va ularning narxlari 2021- yilda amalda bo'lgan narxlar asosida hisoblab topilgan. Xizmat ko'rsatish ko'rsatkichida klaster va SFUlarining xizmatlari nazarda tutilgan. Ushbu jadvalga ko'ra ishlab chiqarish ustama harajatlarini taqsimlashning umumiy stavkasi 3942,1696 so'mni tashkil etmoqda. Bu stavkadan bir birlik mahsulot tannarxi va davr oxiriga maxsulot qoldig'i budjetini tayyorlashda foydalaniladi.

Xulosa. Qishloq xo'jaligi korxonalarida xususan fermer xo'jaliklarida zamonaviy analitik hisob tizimini samarali tashkil etish uchun boshqaruv hisobi va hisobotini muhim bo'limlaridan biri bo'lgan byudjetlashtirishni iqtisodiy tizim prinsiplariga mutanosib ravishda tashkil etish va shu orqali barcha iqtisodiy hisob ko'rsatkichlaridan foydalangan holda tahlil qilish imkoniyatini berish maqsadida, korxonaning har bir bo'limi bo'yicha baho hamda prognozlashtirish natijalarini

olish va nihoyat xo'jalikni iqtisodiy potensialini hisobga olgan holda ularni resurslardan foydalanishini hisobga olish lozim.

Shuningdek butun agrosanoat kompleksida muntazam o'sish suratlarini ta'minlash uchun barcha ma'suliyat markazlarida va qishloq xo'jalik korxonalarining barcha faoliyat segmentlarida boshqaruv hisobi va hisobotining xususan byudjetlashtirishni tashkil etish ishlab chiqarish hisobida, ichki va tashqi ta'sir faktorlarini bashoratlashda strategic boshqaruvni amalga oshirishda faoliyatni o'z ta'siriga oladi.

Fermer xo'jaliklarida byudjetlashtirishni tashkil etish xususida yuqorida ta'kidlangan va taxrir eilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hr bir fermer xo'jalik o'z faoliyatini byudjetlashtirishni funksional v amoliyaviy byudjetlarni shakllantirish orqali to'qqis ta ketma-ketligi muvofiqlashtirilgan bosqinchlar bo'yicha amalga oshirish lozim. Albatta bunda rejalashtirilayotgan harajat miqdorlarini aniqlashda fermer xo'jaliklarida byudjetlashtirishni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim.shuningdek har bir tuzilayotgan byudjet boshqa byudjetlar bilan uzviy aloqador bo'lganligi uchun, ulani tuzishda xo'jalik raxbari va bosh hisobchi byudjetlar muvofiqligini ta'minlash masuliyati yuklanadi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. -T.: «Sharq»NMAK, 2004 y.
2. Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. -T.: «Sharq» NMAK, 2005 y.
3. Mamadiyarov D.U. Qishloq xo'jaligida boshqaruv hisobini tashkil etish va uning uslubiyatini rivojlantirish. i.f.n. diss. –T.: 2007. -163 b.
4. Ibragimov A., Ochilov I., Qo'ziev I., Rizaev N., Moliyaviy va boshqaruv hisobi./O'quv qo'llanma. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008 y.
5. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.-255 b.
6. Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi –T.: “Fofur G'ulom” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. -252 b.
7. Вахрушева О.Б. Бухгалтерский управленческий учет. –М.: Дашков и К, 2012. – 252 с.